



JAHON VA O‘ZBEK ADABIYOTIDA TARJIMA MUAMMOLARI VA BADIY TARJIMA: TADQIQOTLAR, MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Raxmonzoda Muazzama Jasuriy

Tarjimonlik fakulteti talabasi

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Ilmiy rahbar: Bakirova Xilolaxon Botiraliyevna

Tarjimonlik fakulteti, “Ingliz tili amaliy tarjima” kafedrasida

katta o‘qituvchisi

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada badiiy tarjima jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ayrim muammolar va ularning yechimlari haqida so‘z yuritiladi hamda misollar orqali yoritilib beriladi.

Kalit so‘zlar: tarjima, adabiyot, badiiy tarjima, asliyat tili, tarjima tili

Аннотация: В данной статье рассматриваются некоторые проблемы, которые могут возникнуть в процессе художественного перевода и пути их решения, а также приводятся примеры.

Ключевые слова: перевод, литература, художественный перевод, язык оригинала, язык перевода

Annotation: This article discusses some of the problems that may arise in the process of literary translation and their solutions as well as examples.

Key words: translation, literature, literary translation, source text, target text.

Tarjima bu ma`lum bir tildagi ma`lumotni boshqa bir tilda qayta yaratish san`atidir. Tarjimashunos olim G‘aybulla Salomov ta`kidlaganidek, tarjima so‘z san`ati bilan bog‘liq ijodiy jarayon hisoblanadi.[1, 93-b] Tarjimaning bir turi bo‘lgan badiiy asarlar tarjimasi ham hozirgi kunda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jahon adabiyotining yetuk namoyondalaridan biri Uilyam Shekspir asarlarini Yusuf Shomansur, Xurshid Davron tarjimalarida o‘qishimiz mumkin. Shuningdek, o‘zbek adabiyotining zabardast vakillari Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, O‘tkir Hoshimov, Pirimqul Qodirov kabilarning asarlari ham jahonning ko‘plab tillariga tarjima qilinib, o‘z qadr-qimmatini oshirib kelmoqda.

Badiiy adabiyot namunalarini bir tildan ikkinchisiga har tomonlama sifatli o‘girish tarjimondan qattiq mehnat, tajriba va izlanish talab etadi. Dunyo tillarining turlicha ekanligini hisobga olsak, badiiy asar tarjimasi jarayonida turli xil muammo va qiyinchiliklarning yuzaga kelishi tabiiy holdir. Masalan, flektiv tildan agglyutinativ tilga tarjima qilish jarayonida grammatik, leksik va morfologik jihatdan o‘zgarishlar kuzatiladi. Bundan tashqari, badiiy asarda qahramonlar tilidan aytilayotgan turli xil maqol, matal, ibora va metaforalarga tarjima tilida ekvivalent, ya`ni muqobil variant qidiriladi. Misol uchun, o‘zbek tilida hech qachon amalga oshmaydigan ish harakatni ifodalash uchun „tuyaning dumi yerga tekkanda“ iborasidan foydalanamiz, ingliz tilida esa bu ma`noni ifodalash uchun “when pigs fly” frazeologizmidan foydalaniladi. Bunday holatda iborani so‘zma-so‘z tarjima qilish maqsadga muvofiq emas, shuning uchun tarjima tilida uning ekvivalenti



tanlanadi. Chunki, frazeologizmlar bu- ma`nosi bir so`z yoki gapga teng kaeladigan, yaxlitligicha ko`chma ma`noda qo`llaniladigan so`z yoki so`z birikmasidir.

Badiiy matnlarni tarjima qilishda eng qiyin muammolardan yana biri bu xalqlar madaniyati o`rtasidagi farqni kitobxonga yetkazib berish hisoblanadi. Tarjima jarayonida tarjimondan bir millatga doir xususiyatlarni boshqa tilda berishda katta mahorat va so`z boyligi talab etiladi. Bundan tashqari badiiy asarlarda yuzaga kelishi mumkin bo`lgan muammolardan biri asl asarga sodiq qolish asar asliyatidan olinuvchi his-tuyg`u va kechinmalarni o`quvchi kitobxonga aynan yetkazish, shakl va mazmun birligini saqlab qolish sanaladi. [2, 25-b.] Bundan ko`rinib turibdiki badiiy asar tarjimasi ancha murakkab hisoblanadi va tarjimondan yetarlicha bilim va malaka talab etadi. Har bir badiiy adabiyot o`z tarixiga ega. Tarjimon ma`lum bir asar tarjimasi bilan shug`ullanar ekan, u ensiklopedik bilimga ham ega bo`lishi zarur. Ya`ni asar yaratilgan davr, u davrdagi kishilarning ijtimoiy hayoti, madaniyat va an`analari qanday bo`lgan degan savollarga javob izlash har qaysi mohir tarjimonning oldidagi dastlabki vazifalaridandir. Bundan tashqari tarixiy badiiy asarlar tarjimasi bilan shug`ullanayotgan tarjimon o`zi uchun notanish bo`lgan tarixiy yoki arxaik so`zlarni uchratadi. Har qanday adib asarning leksik qatlamini bayon etishda, qalamga olinayotgan davr tilini ham nazarda tutish lozim. Chunki tarixiy mavzularga bag`ishlangan asarlarda yangicha so`zlarni ishlatib bo`lmaganidek, hozirgi davr mavzusiga bag`ishlangan asarlarda ham arxaik so`zlarni qo`llash yaxshi natija bermaydi. [3, 177-b.] Masalan, Omon matjonning Xiva xonligi davridagi voqealarni tasvirlovchi, “Nurjon botir” she`ridan olingan quyidagi parchada navkar so`zi o`rnida askar leksemasi qo`llanilsa, kulgili bo`lar edi.

Oddiy misol, birdan uning loyga botdi ulovi,

Quriqlikdan chiqarolmay qirqta navkar ovvora. [3, 177-b.]

Badiiy asarlarning asl go`zalligini namoyon etuvchi yana bir tasvir vositalardan biri bu-metaforadir. Metafora obrazli taffakkurning muhim xususiyatlaridan biridir. Shuni ham ta`kidlab o`tish kearkki, tahlil jarayonida metaforaga funksional yondashiladi. Chunki bir tomondan metafora yozuvchi yoki shoirga o`zining his-tuyg`ularini bayon etishga va asarni ma`noli va chiroyli yetkazib berishga yordam bersa, ikkinchi tomondan o`quvchiga keltitirilgan asarni osonroq tushunish, tasavvur qilish yoki ularni o`zida his qilib, xulosa qilishga yordam bearadi. Bundan ko`rinib turibdiki, metaforaning she`riyatdgi, umuman, badiiy ijoddagi o`rni beqiyosdir. She`riyatda metafora nafaqat o`zbek tilida, balki ingliz tilida ham mavjud va ingliz adabiyotida John Donne o`zbek adabiyotidagi Abdulla Oripov singari metaforadan eng ko`p qo`llagan shoir hisoblanadi. Misol tariqasida, uning “The sun rising” she`rini tahlil qilish mumkin. [4, 91-b.]

She`s all states, and all princes, I,

Nothing else is.

Princes do but play us, compared to this,

All honors mimic, all wealth alchemy. [4, 93-b.]

Ushbu she`ning birinchi satri, “She`s all states, and all princes, I,” “u barcha shtatlar va hamma shahzodalar” ma`nosini bildiradi va bu yerda insonni davlatlarga, shtatlarga qiyoslagani sababli metafora yuzaga kelgan.



Xulosa qilib aytganda, badiiy asar tarjimasi murakkab va mas`uliyatli jarayon hisoblanadi. Tarjimon bu jarayonda muallif yetkazib bermoqchi bo`lgan ma`noni o`quvchiga tarjima matnida ham yetkazib berishga harakat qilish kerak. Tarjima jarayonida yuqoridagi muammolarga duch kelinsa, tarjimon asarni chuqur o`rganish va har tomonlama sifatli tarjima qilish uchun chuqur izlanishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati:

1. Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. „O`qituvchi” nashriyoti. Toshkent. 1978-yil
2. Fayzullayeva M. Badiiy tarjima va bu jarayonda yuzaga keluvchi muammolar. “Journal of science-innovative research in Uzbekistan” jurnali. Volume 1, Issue 8, 2023. November. ISSN:2992-8869
3. Atabayev S. Tarixiy va arxaik so`zlarning badiiy matn tarkibidagi uslubiy xususiyatlari. “Academic research in modern science”. International scientific online conference
4. Shermatova S., Odiljonova M. O`zbek va ingliz adabiyotida metaforalarning foydalanish tahlili. “Oriental Renaissance”. Innovative, educational, natural and social sciences.